TURKISTON QISHLOQ XO’JALIGI JAMIYATINING TASHKIL ETILISHI

Narziyeva Maftuna Adhamovna

Navoiy davlat pedagogika instituti tayanch doktaranti

Annotatsiya: Turkiston qishloq xo‘jaligi jamiyati 1885 yil 16 yanvarda Dehqonchilik va mulk vaziri tomonidan tasdiqlangan “Rossiya bog‘dorchilik jamiyatining” Turkiston bo‘limi sifatida faoliyatini boshlagan. 1895 yilda bo‘lim Turkiston qishloq xo‘jaligi jamiyati sifatida qayta tashkil etiladi va 1895 yil 4 iyulda uning nizomi Dehqonchilik va mulk vaziri tomonidan tasdiqlanadi.

Kalit so’zlar: Turkiston qishloq xo’jaligi jamiyati, Rossiya imperiyasi, Turkiston general gubernatorligi, Rossiya bog’dorchilik jamiyati

Turkiston general-gubernatorligida tashkil etilgan ilmiy jamiyatlar avvalo o‘lkada Rossiya imperiyasi davlatchiligini targ‘ib etish va mustahkamlash vositasi sifatida vujudga kelgan. Markaziy va mahalliy imperiya amaldorlari ilmiy jamiyatlarni birlamchi vazifasi sifatida rus davlatchiligi manfaatlarini ta’minlashdan iborat deb bilishar edi[1]. Xususan, masalani Turkiston qishloq xo‘jaligi jamiyati misolida o‘rganadigan bo‘lsak, bunda ular avvalo mahalliy aholining qishloq xo‘jaligidagi faoliyatini o‘rganish va o‘sha davrdagi ilg‘or texnologiyalarni qo‘llashni targ‘ib qilishgan. Qolaversa, Rossiya hukumati O‘rta Osiyoni har tomonlama o‘rganish orqali iloji boricha tezroq ilmiy ma’lumotlarga ega bo‘lishga qiziqardi[2]. Bundan ko‘zlangan asosiy maqsad uning yer osti va usti boyliklari joylashgan manzillar haqida batafsil ma’lumotga ega bo‘lish va o‘lkaga har xil yo‘llar orqali kirib borish bo‘lgan. Turkiston diyori qadim zamonlardan zamindorlik rivojlangan makonlardan biri bo‘lgan. Bu hududda dehqonchilikning turli ko‘rinishlari bog‘dorchilik, polizchilik va qishloq xo‘jaligining boshqa sohalari rivojlangan. Rossiya imperiyasi O‘rta Osiyoni zabt etgandan so‘ng o‘lkaning qishloq xo‘jaligi salohiyatidan to‘la foyda olish uchun bir qator tadbirlarni amalga oshirgan[3]. Qolaversa, Imperiyaning amaldorlari va mahalliy mustamlaka ma’muriyati o‘lkadan

ko‘proq iqtisodiy foyda olish vositalaridan biri sifatida qishloq xo‘jaligini ko‘rar edi. Shu maqsadda Turkiston general-gubernatori tashabbusi bilan o‘lkada qishloq xo‘jaligi sohasini rivojlantirish maqsadida Rossiya Imperatorlik bog‘dorchilik jamiyatining Turkiston bo‘limi tashkil etildi.

Ushbu mavzuni tadqiq etishda tarixiylik, ob’ektivlik, tarixiy izchillik tamoyillaridanfoydalanilgan holda, O‘zbekiston Milliy Arxivi hujjatlari asosida Turkiston qishloq xo‘jaligi jamiyati faoliyati tarixi ilmiy tahlil etilgan. Ushbu ilmiy jamiyat faoliyati natijasida o‘lkani har tomonlama o‘rganishda ko‘plab ilmiy natijalar qo‘lga kiritilgan. Turkiston qishloq xo‘jaligi jamiyati faoliyati natijasida yig‘ilgan hujjatlarni arxiv manbashunosligi nuqtai nazaridan tahlil qilinsa, ushbu jamiyatning o‘lkani qishloq xo‘jaligi nuqtai nazaridan tadqiq etishda salmoqli faoliyat yuritganligi ma’lum bo‘ladi. Turkiston qishloq xo‘jaligi jamiyatining tarixi turli davrlarda tadqiqotchilar diqqat e’tiborida bo‘lgan. Ularda asosan ushbu jamiyatning faoliyati tahlil etilgan. Lekin O‘zbekiston Milliy arxivida saqlanuvchi Turkiston qishloq xo‘jaligi jamiyati faoliyati natijasida vujudga kelgan I-103 fondi alohida o‘rganilmagan. I-103 fondi – Turkiston qishloq xo‘jaligi jamiyati deb nomlangan. 1885 yil 16 yanvarda Dehqonchilik va mulk vaziri tomonidan tasdiqlangan “Rossiya bog‘dorchilik jamiyatining” Turkiston bo‘limi sifatida faoliyatini boshlagan. 1895 yilda bo‘lim Turkiston qishloq xo‘jaligi jamiyati sifatida qayta tashkil etiladi va 1895 yil 4 iyulda uning nizomi Dehqonchilik va mulk vaziri tomonidan tasdiqlanadi. Jamiyat 1917 yil to‘ntarilishidan so‘ng ham, to 1921 yilgacha faoliyat yuritgan. Jamg‘armada jamiyatning nizomi, Yer ishlari va mulk vazirligining sirkulyarlari va boshqaruv kengashi yig‘ilishlari jurnallari hamda bayonnomalari, jamiyatning faoliyati haqida bayonot va hisobotlar mavjud. Shuningdek, jamg‘armada jamiyatning turli masalalarga doir yozishmalari, jamiyat a’zolari ro‘yxati, smetalar va shu kabi hujjatlar mavjud. Jami 317 ta saqlov birligidan iborat. Ular bir ro‘yxatga kiritilgan. Fonddagi saqlov birliklari 1 dan 317 gacha tartib raqamlari bilan belgilangan bo‘lib, 3a, 141a, 258a literli (harf bilan belgilangan) saqlov birliklari ham mavjud[4]. Ushbu fond “I” (istoricheskiy) indeksi bilan belgilangan bo‘lib, shuningdek, hamma saqlov birliklariga “OS” (osobo sennыy) grifi ham qo‘yilgan.

Barcha saqlov birliklari mikrofilmli zaxira nusxalariga ega. Arxiv hujjatlarida ta’kidlanishicha jamiyat nizomi 1885 yil 11 yanvar kuni Davlat mulk vazirligi tomonidan tasdiqlagan[5]. Nizom 10 banddan iborat bo‘lib unda markaziy jamiyatga ko‘maklashishi hamda Turkiston hududida qishloq xo‘jaligini rivojlantirish bo‘yicha keng ko‘lamda faoliyat olib borishi belgilab qo‘yilgan edi[6]. Jamiyat faoliyati uning boshqaruvi tomonidan amalga oshirilgan bo‘lib, boshqaruv tarkibiga rais, vitse-rais, sekretar hamda soni iktadan to‘rttagacha bo‘lgan a’zolardan iborat bo‘lgan. Bo‘limning faxriy va haqiqiy a’zolari hamda xodimlari bo‘lgan. Jamiyatning bir yillik faoliyati hisobotida qayd etilishicha uning birinchi yig‘ilishi 1885 yil 5 martda bo‘lib o‘tadi. Unda rais N.N. Kosyanov, vitse-rais D.P. Pasevich, kotib N.K. Smirnov va a’zolar I.I Krauze, V.F. Oshanin, N.A. Maeva va N.F. Ulyanovlardan iborat boshqaruv saylanadi. Yil oxiriga borib bo‘limning haqiqiy a’zolari soni 100 ta kishidan iborat edi. Bir yillik faoliyati davomida bo‘lim jami 12 ta yig‘ilish 2 ta ko‘rgazma tashkil qildi. Xususan uning yig‘ilishida amaldagi nizomga qo‘shimchalar kiritish joriy ishlar bog‘dorchilik va o‘rmonchilik bo‘yicha turli masalalar ko‘rib chiqilar va jamiyat a’zolari tomonidan turli ma’ruzalar qilinar edi. Jamiyat o‘z faoliyati doirasida bir qator ilmiy tadqiqotlarni ham olib bordi. Xususan, o‘lkada dehqonchilik va irrigatsiya masalalari o‘simliklarning yangi navlarini olib kelish va o‘lkada yetishtirishga oid bir qator ilmiy izlanishlar jamiyat boshchiligida amalga oshirildi. XIX asr oxiri – XX asr boshlarida qishloq xo‘jaligini ixtisoslashtirish jarayoni boshlandi, bu birinchi navbatda paxta bilan shug‘ullanadigan o‘lkaning tumanlariga ta’sir ko‘rsatdi. Rossiya sanoatining to‘qimachilik xom ashyosi paxta tolasiga bo‘lgan katta talabi O‘rta Osiyoda paxta etishtirishni rivojlantirishga turtki berdi. Uning monopol iste’molchisi Rossiyaning markaziy mintaqalari edi. Qishloq xo‘jaligining ixtisoslashishi nafaqat paxtachilik rayonlarini, balki g‘alla, meva-sabzavot va Turkistonning boshqa mintaqalarini ham qamrab oldi. Arxiv materiallari, hisobotlar va boshqa manbalardan ma’lum bo‘lishicha, jamiyat amaliy faoliyatni bog‘dorchilikning tor doirasi bilan cheklamagan va iloji boricha mintaqaning asosiy qishloq xo‘jaligini rivojlantirishga intilgan. XIX asr oxirida mintaqaning o‘sib borayotgan iqtisodiy ehtiyojlariga muvofiq Turkiston qishloq xo‘jaligi jamiyati jadal

ishlar boshladi. Uning tarkibida turli xil muassasalar, filiallar, qo‘mitalar, komissiyalar mavjud edi. 1900 yilda jamiyatda 8 ta: bog‘dorchilik, uzumchilik va vinochilik, paxtachilik, chorvachilik va parrandachilik, sug‘orish, iqtisodiyot va statistika, dehqonchilik va asalarichilik maxsus bo‘limlari mavjud edi. Turkiston qishloq xo‘jaligi jamiyatining rivojlangan davri Rossiyaning taniqli eksperimental olimi Rixard Rixardovich Shreder jamiyatning rahbari sifatida o‘n to‘rt (1904-1918 yy.) yillik faoliyat yuritgan davriga to‘g‘ri keladi. XX asrning birinchi o‘n yilligi o‘rtalarida Turkiston qishloq xo‘jaligini o‘rganish uchun chuqur va ixtisoslashgan turli bo‘limlarni tashkil etish jamiyat tarixidagi muhim voqea bo‘ldi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1.Nazarov, A. Y. (2020). Scientific societies in the Turkestan governorate-general as an instrument of colonial statehood (archival source study). Journal of Critical Reviews, 7(7), 1068- 1073.

2.Nazarov, A. (2020). History Of The Emergence And Development Of Scientific Societies In The Governor-General Of Turkestan. The American Journal of Social Science and Education Innovations, 2(10), 82-88.

3.Nazarov, A. Y. (2019). The fund of national archive of Uzbekistan about the scientific institutions in Turkestan. Theoretical & Applied Science, (10), 587-589.

4.Назаров, А. Ё. (2016). Организация использования документов Центрального Государственного архива кинофотофонодокументов Республики Узбекистан. Документ. Архив. История. Современность.—Екатеринбург, 2016, 484-489.

5.Азимбаев, М. С. (2014). Традиционное образование в Туркестанском крае по архивным материалам Центрального государственного архива Республики Узбекистан. Документ. Архив. История. Современность.—Екатеринбург, 2014, 270-274.

6.Адилов Ж.Х. Архивные документы о завоевании Туркестанского края Российской империи (На примере похода В.А. Перовского)// «Документ.

Архив. История. Современность». Материалы V Международной научно-практической конференции. Екатеринбург, 2014. С. 160-162.

7.Путеводитель. Центральный государственный исторический архив УзССР. Сост. Агафонова З.И., Халфин Н.А. 1948. – С. 142